**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**
**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**H i m o y a g a**
kafedra mudiri
AbdurahmonovaY.M. _______
«___»___________2015 y.

# BAKALAVR BITIRUV ISHI

Mavzu:

«Antivirus himoya vositalarini tarqatuvchi korhona veb saytini yaratish»

Bitiruvchi ___________ Atajanova S.
(imzo) (f.i.o.)
Rahbar __________ Babamuhamedova M.Z.
(imzo) (f.i.o.)

Taqrizchi ____________ Skiba E.V.
(imzo) (f.i.o.)
HFX va
Ekologiya ____________Abdullayeva S.M. maslahatchisi
(imzo) (f.i.o.)

**Toshkent – 2015**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Fakultet Dasturiy injiniring
Kafedra Algoritmlash va matematik modellashtirish
Yo‘nalish (mutaxassislik) 5330200 – Informatika va axborot texnologiyalari

**«TASDIQLAYMAN»**
Kafedra mudiri
AbduraxmonovaY.M. _______
«_____» _______ 2015 y.

Bitiruv ishini bajarishga

**TOPSHIRIQ**

Atajanova Surayyo
(familiya, ismi, otasini ismi)

**1. BMI mavzusi:** Elektron to’lov tizimlari uchun pin kodlar ishlab chiqish

**2. Universitet qarori bilan tasdiqlangan:** «___» ___________2015 y. №_____

**3. Ishni to‘liq bajarish uchun berilgan vaqt:** 20.03.2015

**4. Ishning boshlang‘ich ma’lumotlari:** Mavzuga doir ilmiy - texnik adabiyotlar, Internet ma’lumotlari

**5. Hisob tushuntirish matni mundarijasi (ishni bajarishdagi masalalar ro‘yxati)**

Kirish
1. Nazariy qism
2. Asosiy qism
3. Hayot faoliyati xafsizligi
Xulosa

**6. Grafik materiallar ro‘yxati:** Microsoft Office Power Point 2007 ilovasida tayyorlangan prezentatsiya slaydlari

**7. Topshiriq berilgan kun** 20.01.2015 y.

Rahbar ____________________
(imzo)

Topshiriqni oldi __________________
(imzo)

**8. BMIning har bir bo‘limida bajariladigan ishlarga maslahatlar:**

| **Bo‘lim** | **Rahbar F.I.O** | **Imzo** | |
|---|---|---|---|
| | | **Topshiriq berdi** | **Topshiriq oldi** |
| *Kirish* | Babamuhamedova M.Z. | | |
| *1-bo‘lim* | Babamuhamedova M.Z. | | |
| *2-bo‘lim* | Babamuhamedova M.Z. | | |
| *3-bo‘lim* | Abdullayeva S.M. | | |
| *Xulosa* | Babamuhamedova M.Z. | | |
| | | | |

**9. Ishni bajarish grafigi:**

| **№** | **BMI bo‘limlarining nomlari** | **Bajarish muddati** | **Bajarilganligi xaqida rahbar imzosi** |
|---|---|---|---|
| **1.** | *Kirish, masalaning qo‘yilishi* | *19.01.15-24.01.15* | |
| **2.** | *Masalaning qo‘yilishi, fan sohasining tahlili* | *26.01.15-14.02.15* | |
| **3.** | *Tahlil qilingan usullarni tadqiq etish* | *16.01.15-07.03.15* | |
| **4.** | *Hayot faoliyati xavfsizligi* | *09.03.15-14.03.15* | |
| **5.** | *Xulosa* | *16.03.15-20.03.15* | |
| **6.** | *Prezentatsiya slaydlarini ishlab chiqish* | *23.03.15-28.03.15* | |
| **7.** | *Dastlabki himoya* | | |

Bitiruvchi ________________ «______» ______________ 2015 y.
(imzo)

Rahbar ________________ «______» ________________ 2015 y.
(imzo)

Ushbu bitiruv ishda antivirus himoya vositalarini tarqatuvchi korhona veb sayti ishlab chiqildi.

Axborot tizimi o'z ichiga korxona haqida quyidagi ma'lumotlarni olgan: korxonaning xizmatlari, foydali maslaxatlar, korxona tomonidan sotuv uchun mo'ljallangan litsenziyali dasturiy vositalar, antiviruslar va ularni o'rnatish bo'yicha ko'rsatmalar. Axborot tizimi zamonaviy veb texnologiyalar yordamida yaratilgan.

Sayt o'z ichiga quyidagi bo'limlarni oladi: dasturlar ro'yhati, yangiliklar bo'limi, teskari aloqa.

В данной выпускной работе разработан веб сайт предприятия распростронящего антивирусные программы.

Информационная система содержит следующую информацию: о всех оказываемых услугах предприятия, полезные советы по эксплуотированию вычислительных систем, об антивирусах и советы по их установке и использованию

Информационная система создана с помощью современных веб – технологий. Сайт включает в себя следующие разделы: поисковая система, система новостей, обратная связь и учет посетителей.

In this final work designed web site disseminating the enterprise anti-virus software.

The information system contains the following information: about all the services rendered by the company, useful tips ekspluotirovaniyu computing systems, an antivirus and tips on how to install and use

The information system is designed using modern web - technologies. The site includes the following sections: a search engine, news system, feedback and keeping customers.

## MUNDARIJA


**Kirish**. . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . ...... 6

**1. Taxliliy qism**. **Veb sahifalarni yaratish texnologiyalari taxlili**.............. 9

1.1. Veb sahifalar........................................................................... 9

1.2. Veb sahifa yaratishning usullari va ularga qo'yiladigan talablar ….. 10

1.3. Masalani qo'yilishi..................................................................... 13

**2. Asosiy qism**. **Antivirus vositalarini tarqatuvchi korxona saytini yaratish vositalari**……………………………………………………….. 15

2.1. Veb sahifalarni yaratish dasturiy vositalari va usullari………….... 15

2.2. HTML ning komandalari va qo'llanilish tavsifi.............................. 18

2.3. Java platformasi……………………........................................... 26

2.4. PHP tili…………………... . . . . . . . .. . . . . . . . . . . . . . ............. 29

2.5. Ma'lumotlar bazasini yaratish. SQL tili………………..……..…..... 31

2.6. Saytning umumiy tuzilishi va algoritmi…………………………… 33

2.7. Foydalanuvchiga qo'lanma………………………………………… 34

2.8. Saytning tarkibiy tuzilishi………………………………………….. 44

2.9. Dasturchiga qo'lanma……………………………………………… 45

**3.Hayot faoliyati xavfsizligi**......................... ... ... ... ... ... ... ... ... ... ... ... ... ... 57

3.1.Kompyuter xonalarida ish joyini tashkil etilishida qo'ilgan asosiy talablar.................................................................................... 57

3.2. Favqulotda vaziyatlar sodir bo'lish ehtimolligini oldindan bilish va baholash. 60

**Xulosa**. . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . ............ 67

**Adabiyotlar**. .. . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . ....... 68

**Ilova**. . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . ................. 69

# Kirish

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida ustuvor yo'nalishlardan bo'lib, kompyuter va informatsion texonologiyalar, telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlanishi va modernizatsiyalash, ma'lumotlarni uzatish, Internet texnologiyalari, Internet xizmatlariga murojaatlar imkoniyati hisoblanadi.

Internetda iqtidorli yoshlar ishtirokida internet festivallar, Internet-forumlar o'tkazish odatiy holga aylandi. SHahar va qishloqlarda Internetdan foydalanish punktlari soni yuqori sura'tda oshdi. Axborot xizmatlari nomenklaturasi keng ko'lamda kengaymoqda va bu xizmatlar mohiyati borgan sari intellektuallashib bormoqda.

Jamiyat rivojining bugungi bosqichi bevosita texnologiyalarning takomillashuvi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy texnologik jarayonlar har qanday sohaga o'z ta'sirini o'tkazgani kabi, axborot uzatish tizimiga ham tobora yangi o'zgarishlar olib kirmoqda. SHundaylardan bo'lmish Internet, ayni davrda dunyo bo'yicha jadallik bilan global auditoriyani egallab bormoqda. Binobarin, bugun Internet o'zida barcha sohalar imkoniyatlarini mujassam etmokda.

«Mutaxassislarning fikriga ko'ra, axborot texnologiyalari jamiyat tuzilmasining shu qadar ajralmas qismiga aylanib ulgurdi-ki, endi u shunchaki texnologik jarayon emas, aksincha, ijtimoiy jarayonga aylanib bormoqda. Davlatning iqtisodiy qudrati, xalqaro nufuzi, demokratik institutlarning rivoji darajasi bari axborot texnologiyalari taraqqiyotiga bog'liq bo'lib bormoqda.»

Mamlakat maktablari, litseylari, kollejlari o'quvchilarining, oliy ta'lim muassasalari talabalarining axborotga bo'lgan talab-ehtiyojlarini har tomonlama qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek Internet tarmog'ining milliy segmentida ta'lim va bilim beradigan axborot resurslarini rivojlantirish maqsadida hukumatimizning bir qator qaror, farmoyish va buyruqlari chiqarilgan.

Shular jumlasiga 2005 yil 28 sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamoat ta'limi axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-191 qarorini keltirish mumkin. Qarorga asosan, mamlakat maktablari, akademik

litseylari, kollejlari, oliy o'quv yurtlari, yoshlar tashkilotlari, kutubxonalar, muzeylar va boshqa ta'lim, ilmiy va madaniy-ma'rifiy muassasalarni «ZiyoNET» tarmog'iga ulash vazifalari yuklatilgan va unga binoan mamlakatimizda 12000 ga yaqin ta'lim muassasalarini birlashtirishi ko'zda tutildi va ZiyoNET ta'lim tarmog'i tashkil etildi.

Internet insonlarning axborot almashinuv ehtiyojidan kelib chiqqan holda rivojlanib bormoqda. Hozirgi vaqtda, albatta internet o'z rivojlanish nuqtasini oddiy tajriba sifatidagi, 1969 yil dekabrida AQSH ning Mudofaa Vazirligining ARPA loyihasi doirasida ishlab chiqilgan (ARPA - Advanced Research Projects Agency).

Bu katta bo'lmagan tarmoq Los-Anjelasdagi Koliforniya Universitetida joylashgan bo'lib faqatgina 4 ta tugandan iborat bo'lgan xolos. Uning asosi bo'lib uzatiladigan ma'lumotlarni raqamlashtirish va paketlar kommutatsiyasi hisoblanadi, va u tarmoqni tez rivojlanib, taqsimlangan ko'rinishda butun olamni egalladi.

Olidingi asrning 70 yillariga kelib, TCP/IP yagona rasmiy protokollari va modellari kashf qilindi, bu holat esa global tarmoq rivojlanishiga jiddiy turtki bo'ldi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining yetarlicha mukammal ishlanganligi tufayli ma'lumotlarni almashish va ma'lumotlar bazasini tuzish imkoniyatini yengillashtirdi. Bunda Internet tarmog'ining o'rni xam katta. Internet jaxon bo'yicha kompyuterlar tarmoqlaridan tuzilgan yaxlit tarmoq bo'lib, unda yagona “til” - andoza - qoidalar majmui asosida ma'lumot almashinadi. Internet XX asrning buyuk kashfiyotlaridan biri xisoblanadi. Ushbu kashfiyot tufayli jaxondagi millionlab kompyuterlar yagona tarmoqga birlashtirildi Lekin 1994 yil o'rtalarigacha keng foydalanuvchilar ommasi tomonidan internetga qiziqish yo'q edi. CHunki unga ulanish va undan foydalanish texnologiyasi foydalanuvchilar uchun qulay emas edi. Internetdan yalpi foydalanishda birinchi qadam Veb texnologiyasining yuzaga kelishi bo'ldi. Veb texnologiyasining asosi bu HTML tilidir HTML tili WWW da gipermatn xujjatlarini tayyorlash vositasidir

Ayniqsa, tarmoqda elektron pochta, e'lonlar, elektron doskalar kabi xizmatlar keng tarqaldi. Keyinchalik esa, boshqa kompyuter resurslariga murojaat, elektron jurnal telekonferentsiyalar, distantsion ta'lim va h.k.lar kabi yangi xizmatlar yuzaga keldi.

Turli xil platformadagi tarmoqlarni birlashtirishda turli apparat platformalar bo'lganligi, turli protokollar bo'lganligi uchun turli muammolar yuzaga keldi. Va nihoyat, TCP/IP protokollar asosida turli tarmoqlar birlashtirilib internet tarmog'i yuzaga keldi.

Internet-bu oddiy global tarmoq emas, bu planeta masshtabidagi ko'p sonli tarmoqlarni birlashtirishdir, bu umumjaxon “tarmoqlar tarmog'idir”.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi axborot olishning eng asosiy resurslaridan biri bo'lgan veb sahifa yaratishga bag'ishlangan. Bu sahifa hozirgi vaqtda muhim dolzarb bo’lgan havfsizlik vositasi-ya’ni antiviruslarni tarqatuvchi korxonaning xizmatlaridan foydalanishda sezilarli darajada sifat va vaqt tarafidan katta qulaylik va afzallik beradi.

# 1. Taxliliy qism. Veb sahifalarni yaratish texnologiyalari taxlili

## 1.1. Veb sahifalar

Internetdagi gipermatnli xujjatlar asosiy tushunchalari veb-sayt va sahfialardir.

Veb-sahifa Umumjaxon to'rida uzatiladigan ma'lumotlarning asosiy birligidir. Veb - sahifa ixtiyoriy uzunlikda bo'lishi mumkin.

Veb-sahifaga, o'zi bilan bog'liq xujjatlarga ko'rsatkichga ega bo'lgan alohida xujjat sifatida qarash ma'quldir. Veb-sahifa, ixtiyoriy holda formatlangan matn, rasm, fotografiya va illyustratsiyalarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, veb-sahifa tovush yozuvlarini eshitish uchun, videofragmentlarni ko'rish, boshqa veb-sahifalarni chaqirish uchun maxsus maydonlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Sayt yoki veb-tugun deb o'zaro bog'langan veb-sahifalar tushuniladi.

Sayt ixtiyoriy sondagi veb-sahifalarni o'z ichiga olishi mumkin. Sayt ixtiyoriy tarkibdagi axborotlarga gipermatn ko'rsatkichli sahifalardan iborat bo'lishi mumkin. Umumiy holda saytda ixtiyoriy bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan veb-sahifalardan ham iborat bo'lishi mumkin.

Hozirgi vaqtda dunyoda, inson faoliyatining turli sohalariga bag'ishlangan juda ko'p saytlar yaratilgan. Ular moliya, tibbiyot ta'lim, san'at, dam olish, sport va ishlab chiqishning u yoki bu masalalariga bag'ishlangan mavzuli tugunlardir (uzel). Bular yangiliklar kanali deb atalmish kanallar bo'lib, joriy, vaqti-vaqti bilan yangilanib turadigan xalqaro hayot yangiliklari, siyosat, madaniyat,sport, ob-havo haqida ma'lumotlardir. Davlat, xukumat muassasalari, vazirliklarni, jamoat va tijorat tashkilotlarni ifodalovchi rasmiy saytlar mavjuddir. Foydalanuvchilarga elektron adabiy nashrlarga, musiqa va video yozuvlarga, tavsiriy asarlarga, lug'atlarga, ma'lumotlarga, elektron tijorat va h.k.larga murojaat imkonini beradigan juda ko'p saytlar mavjuddir.

Xavaskor va mutaxassislar tomonidan ishchi holatda bo'lishini ta'minlab turadigan juda ko'p sonli shaxsiy saytlar yaratilgan.

Hozirgi vaqtda, Umumjaxon to'ri , turli axborot resurslariga cheksiz murojaat imkoniyatini beruvchi axborot tarmog'i bo'lib qolmasdan, balki u ommaviy axborot va reklama vositasidir.

## 1.2. Veb sahifa yaratishning usullari va ularga qo'yiladigan talablar

Veb - dizayn - Bu ijod, va ijod bo'lganda xam yorqin namoyon bo'ladigan ijoddir. Aynan dizayn soxasida, inson o'z qobiliyatini to'liq namoyon qilish, xech kim hajm, mazmun, ishlab chiqilayotgan resursni tashkil etish borasida, qat'iy ramkalar qo'ya olmaydi.

SHu narsa aniqki, xar qanday texnologiya, xar qanday ijod jarayoni, soxalar aniq qonun va qoidalarga bo'ysunadi. Veb sayt xam, xuddi badiiy texnik loyixalar kompleksi kabi, qat'iy qoidalar mavjudligini nazarda tutadi. Resurs malakasiz ko'rinmasligi va tashrifchilarda norozilik tug'dirmaslik kerak. Ixtiyoriy veb resursni rejalashtirish va yaratish vaqtida, eng asosiy rioya qilinishi kerak bo'lgan bosh ko'rsatkich, bu albatta foydalanuvchi qulayligidir. Dizayn ilovaning tashqi ko'rinishini aniqlaydi, chunki undan foydalanuvchilar sim potiyasi aniqlanadi va demak tijorat muvafaqiyatidir.

Demak, yaxshi dizaynni ishlab chiqish faqat malakali veb dizaynerlar uchun xosdir. Dizayner, bezakchi badiiy xususiyatga ega bo'lishi emas, balki kompyuter instrumentlaridan foydalanish ko'nikmasiga ham ega bo'lishi kerak. Bu instrumentlar yordamida veb saxifa, tasvir va annimatsiyalar yaratishga mo'ljallangan.

Veb saytni axborotligi, navigatsiya tizimi va tashqi dizayni bo'yicha umumlashtirilgan xolda baxolash mumkin saytdagi xamma ma'lumotlar garmonik xolda mos tushishi va jonlanishi zarur saytning sifatliligi uchun, uning birinchi saxifasida iloji boricha ko'proq ma'lumot sayt vazifalari xaqida axborot beradi. Foydalanuvchi unga zarur bo'lgan ma'lumotni qidirishni noqulaylikni xis qilmasligi kerak.

Dizayn elementi bo'lib ixtiyoriy narsani olish mumkin: bu formallashtirilgan tartibga solingan matn, grafik tasvirlar, annimatsiya, interaktiv elementlar va ko'pkina boshqa narsalar dizayn asosiy printsiplari quyidagilardir:

- dizayn sahifani to'ldirib (qalashtirib) yubormasligi kerak ya'ni sayt asossiy g'oyasiga tegishli bo'lmagan grafik elementlar yoki foydali bo'lmagan ma'lumotlar ko'p bo'lmasligi kerak.
- Sayt dizayn tashrifini, sayt asosiy mazmunidan chalg'itmasligi kerak;
- Dizayn imkon qadar yagona bo'lishi va uning hamma elementlari bir biri bilan uyg'unlashgan bo'lishi, sayt mazmuniga maksimal tarzda mos kelishi va uning mazmunini qo'llashi kerak;
- Internetda so'z siz shunday kelishuv mavjudki, malakali sayt, 640x480 nuqtali imkoniyatga ega bo'lgan, 2T6 rangli kalit roli ekranda tasvirlanishi kerak. Veb sahifa ekranda to'g'ri tasvirlanishi uchun, iloji boricha grafikning maksimal sonini GIF farmatda va eng kerakligini GPEG formatda tasvirlash kerak.
- Veb saytlarni ishlab chiqishda uning tarkibiga kiruvchi fayllar o'lchamlarini hisobga olish muhim dir. Ma'lumotlarni uzatishda tezlik chegaralanganligi uchun, foydalanuvchi sayt yuklanishi vaqtiga etibor beradi. Bundan tashqari, animatsiya effektlari, rasmlarni, video va tovushlarni aks ettirish rasmlarni uzatishni va ranglarni yaxshilshga e'tibor beradi. SHuning uchun ham veb saytlarni yaratish va sozlashda uning o'lchamini optimallashtirishga xarakt qilinadi. Demak veb sayt sahifalari va undagi integrallashgan grafik interaktiv elemenlar hajm bo'yicha minimallashgan bo'ladi. Bu ko'pincha sayt ishlab chiqishda mahsus grafik kompressorlardan va qator, HTML xujjatlardan ortiqcha kodlarni olib tashlash imkonini beradigan usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Bitta sahifada ko'p grafik tasvir, animatsiya va tovushlar bo'lishi kerak emas, chunki ular veb sahifani yuklashda ko'p vaqtni oladi shundan kelib chiqqan holda natijaviy fayl hajmi kichiklashtiriladi.

- Grafik tasvirlarni joylashtirishda yaratuvchilar grafik tasvir saqlanadigan fayl formatini tanlashlari zarur. SHu vaqtgacha 10 lab turli grafik formatlar ishlab chiqilganligiga qaramasdan, amalda ularning faqat ikkitasigina ishlatiladi. Ulardan internetdagi tasvirlangan grafikaning 90% saqlanadi. Ular GIF va GPEG formatlardir. Ularda tasvirni siqishning turili algoritmlari joylashgan ular natijaviy faylni yaxshigina qisqartiradi. Zamonaviy brauzerlar GIF, GPEG, PCX, BMP, PWC va XBM formatlari bilan ishlay oladi, ammo PCX va BMP formatlar kompressiya vositalariga ega emas, bu formatlarda tasvirlar katta hajmni egallamaydi, shuning uchun ularni amalda ishlatilmaydi. Turli formatlar, turli opretsion tizimlar uchun mo'ljallangan.
- Saytni yaratishda mutahassislar uning rang sxemasini yaxshilab o'ylab chiqishlari kerak. Sahifa foni, uni qorong'ulashtirishi kerak emas. Veb sayt chiroyli va qulay chiqishi uchun, faqat mos tushadigan rang sxemasini tanlash va xujjatlarni tashkil etishda 3tadan ortiq bo'lmagan ranglardan foydalanish kerak. Inson psixologiyasidan kelib chiqqan holda, rangalar uyg'unligi, foydalanuvchi ekranidagi ma'lumotni qabul qlishga yordam beradi. SHuning uchung ham ranglar shunday tanlanishi zarurki foydalanuvchi ko'zi charchamasligi kerak.
- Ya'na shuni aytish kerakki loyiha yagona dezaynerlik stilida yaratilishi kerak. Sayt har bo'limi badiy bezaklari biri biriga o'xshash bo'lishi kerak. Foydalanuvchi bir bo'limdan boshqasiga o'tishida, kompyuter modeli, undagi dastur ta'minotiga qaramasdan loyhaning hamma bo'limiga murojaat qilinishida qiyinchiliklarga duch kelmasligi kerak. GIPR ko'rsatqichlar rangi sahifa ma'tini va asosiy fon bilan uyg'un ravishda tanlanishi kerak. GIPR ko'rsatqich faollashganda rangi o'zgarishi kerak.
- Veb sahifa, MS Internet explorer Netcape navigator da indentik tarzda tasvirlanishi zarur. (ularning oxirgi versiyalarida).
- Veb sayt dizaynini ishlab chiqish uning vazifasi hisobga olinishi zarur. SHunday qilib veb sayt dizayni uning mazmunini takidlashi lozim.

- Veb dizaynchi, matn oqish qulayligini esdan chiqarmasiligi va sayt dizaynini maksimal tarzda mazmunli va foydalanuvchini ortiqcha animatsiya va grafik elementlar bilan chalg'itmasligi kerak.

## 1.3. Masalaning qo'yilishi

Internet jadal sura'tlar bilan rivojlanib bormoqda. Tarmoqga bag'ishlangan nashrlar soni ham keskin oshib bormoqda, bu esa o'z navbatida, uni texnikadan uzoq sohalarda ham keng tarqalishiga olib keldi. Internet turli kategoriyadagi foydalanuvchilar uchun foydali ma'lumotlarning to'laqonli manba'iga aylandi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishdan maqsad, zamonaviy axborot texnologiyalaridan - zamonaviy dasturlash texnologiyalari, veb texnologiyalar, dasturlash tillari va veb vositalar yordamida antivirus vositalarini tarqatuvchi xususiy korxona uchun - to'liq va ishonchli axborot berishga mo'ljallangan veb saytini yaratishdir.

Bu axborot tizim saytni yaratishga qo'yilgan talablar quyidagichadir:

1. Veb sayt dizayni - ranglar mutanosibligi, sohalarning to'g'ri taqsimlanganligi, banner va futerlarning sayt ma'nosi va dizaynining mos ekanligi - sifatli ko'rinishda bo'lishi lozim;
2. Korxona xizmatlari tarkibi va undagi xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq va ishonchli ekanligi;
3. Axborot texnologiyalari sohasi va korxona faoliyatini yoritishga mo'ljallangan yangiliklar bo'limi;
4. Teskari aloqa xizmati;
5. Saytni yaratish uchun zaruriy dasturiy tillar va texnologiyalar:

- PHP
- CVS (Joomla)
- Java Script
- HTML
- CSS

Sayt ishlashi uchun zaruriy dasturiy vositalar:

- baza bilan ishlash uchun zarur serverlar (XAMMP, MySQL, APACHE);
- dastur kodi bilan ishlashda qo'llaniladigan taxrirlovchilar (PHP Editor, Zend Studio, CSS Master);
- CMS paketlari (Joomla, Drupol, Word Press) ;
- FTP server bilan ishlash uchun dasturiy vositalar (Total Commander, For Manager).

6. Forum sahifasi-bunda veb-sahifaga tashrif buyuruvchilarni biror mavzu haqida mulozalarni qoldirish imkoniyati mavjudligi.

## 2. Asosiy qism. Antivirus vositalarini tarqatuvchi korxona saytini yaratish vositalari

### 2.1. Veb sahifalarni yaratish dasturiy vositalari va usullari (taxlili)

Internetning zamonaviy rivojlanish bosqichi 90 yillar boshida, ma'lumotlarni almashish yangi protokol yuzaga kelishidan boshlanadi: ya'ni HTTP – Hyper Text Transfer Protocol – bu gipermatn uzatish protokolidir. Bu protokol bilan bir vaqtda WWW- World Wide Web xizmati paydo bo'ldi, u fayllarni global umumjahon to'ri orqali fayllarni uzatuvchi HTTP serverlarining keng ko'lamli tarmog'idan iboratdir.

Bu fayllarning asosiy qismi, maxsus fayllar har xil dasturiy vositalarda yozilgan – Veb sahifalardan iboratdir.

Veb saytlarning ishlab chiqishning talay dasturiy vositalarni va metodlarni sahifalarni vizual yaratish dasturlari, va shu bilan birga, saytni tezda yig'ib olish uchun tayyor shablonlarga ega bo'lgan ko'pgina maxsus tarmoq xizmatlari ham mavjuddir.

Sayt, sahifa – serverning aynan shunday qismi bo'lishini, u biror bir mavzuga to'liq bag'ishlangandir. Albatta, amalda hamma saytlar talay bo'limlardan tashkil topgan bo'lib, ularning har biri yana kichikroq bo'limlardan iboratdir. Ammo har qanday hollarda, saytning hamma qismlarini, umumiy ideya, ma'no, stil birlashtiradi.

Veb sahifalarning mazmuni har xil bo'lishi va har xil ixtiyoriy erkin mavzularga bag'ishlangan bo'ladi, ammo amalda ularning hamma bitta yagona asosdan foydalanadi, ya'ni HTML tilidan (Hyper Text Markup Language- gipermatn belgilash tili) foydalanadi.

HTML xujjatlari x.htm yoki !html kengaytmasiga egadir.

Hamma veb tugunlar xujjatlari, ya'ni internetga yolangan kompyuterlar. Ekranlarida tasvirlangan xujjatlar, HTML dastur kodini o'z ichiga olgandir. HTML sayt sahifalarida matn bloklarini tashkil etish imkonini jadvallar tashkil etishini, matn xujjatlar rangini boshqarish imkonini sayt dizayniga tovush qo'shishga, audio

va qideo ma’lumotlarni qo’shish, imkonini koniksi o’tadigan gipermatnlarni yoki tarmoq boshqa resurslariga murojaat imkonini va hamma elemenlarni o’zaro birlashtirish imkonini beradi.

Gipermatn – bu maxsus kodlar joylashtirilgan, qo’shimcha elementlarni, ya’ni formatlash, illyustrasiya, multimedia bo’laklari va boshqa xujjatlarga o’tish ko’rsatkichlarini o’z ichiga olgan matndir.

HTML – xujjatlarni ko’rish uchun, maxsus dasturiy ta’minot, HTML kodlarga dinamik ishlov beruvchi va veb sahiflarni tasvirlashga mo’ljallangan dasturlar zarurdir. Bunday dasturlar brouzerlar deb ataladi. Internet foydalanuvchilari o’rtasida, Microsoft Windows muhitida ishlashga mo’ljallangan Microsoft Internet Explorer va Netscape Navigator brauzerlari eng ommaviylashgandir.

Veb sahifalarning hamma ishlab chiquvchi vositalari, shartli ravishda uch guruhga bo’linadi:

- dizayn yaratish vositalari
- dastur qismini yaratish vositalari

Birinchi guruhga sahifalarni vizual yaratish vositalari – WYST WYG, ya’ni Front Page, HotDog, Adobe Page Nite, Homesite, Macromedia DreamWaver, Hot metal va nihoyat HTML.

Dizayn yaratish vositalari deb, har xil grafik redaktorlar, raqamli grafik tasvirlarni chizish va ishlov beruvchi dasturlar, annimasiya yaratish dasturlari, videoroliklar va ko’pgina boshqa vositalarga aytiladi.

Veb sahiflarni yaratish eng ommaviylashgan grafik redaktorlar: Adobe Photoshop, Adobe Illustrator, Corep Photo Paint, Corel Draw, annimasiya yaratish uchun esa: Macromedia Flash, Jasc Animation, Shop Pro, Cif Animator va x.k.

Ammo sifatli veb sahifaning eng samarali usuli – dizaynni va dastur kodini “qo’lda” tuzishdir. Bunda, dasturlash tiliga yaqin bo’lgan HTML algoritmik tilidan foydalaniladi. Bu til, to’g’ri natija olish uchun o’z ichiga rioya qilishi zarur bo’lgan qati’iy qoidalarni oladi.

Ammo HTML xujjatni formatini tavsiflashga mo’ljallangan. HTML elektron xujjat poligrafik darajada tashkil etilgan strukturasini aniqlash imkonini beradi, natijaviy xujjat esa har turdagi illyustrasiyalar audio va video fragmentlarni ham o’z ichiga olishi mumkin.

Veb sahifa dinamikligi uchun va murakkab bo’lmagan skriptlar uchun esa. Java Script Visual Basic Script ishlaridan foydalaniladi, ularning kodlari HTML teksti ichiga qo’shiladi.

Skript – veb-sahifa kodi bilan integrallashuvchi, biror-bir til komandalar majmuasidir, xuddi qism dasturga o’xshash.

HTML kodi translyasiya qilinmaydi, ammo interprtasiya qilinadi. Bu degani tayyor kodni bajarilishi uchun uni kompilyasiya qilish kerak emas., maxsus dasturiy ta’minotga qo’shilgan, veb-sahifani, ko’rishga mo’ljallangan interpretator kodni bevosita xujjatni ochish jarayonida kompillyasiya qiladi. Bunda matn xato topsa, bu dastur agar o’z ichiga Java skriptlarni olmagan bo’lsa, u “xatoli” qatorni tashlab o’tadi va mos ogoxlantirishni chiqaradi.

Veb sahifalarni yaratish uchun Java, Java Script, VBScript (Visual Basic Script), PHP (Personal Home Pagetools), CGI (Common Gateway Interface), SCI (Server Side Includes) ASP (Active Server Pages). JSP (Java Server Pages) va boshqalar.

Java sakkiz yil avval, Sun Microsystems kompaniyasi tomonida ishlab chiqilgan, tuzilishi va sintaksis bo’yicha dasturchilarga S tilini eslatadigan, Java dasturlash tili, bugungi kunda internetda ikki variantda Java va Java Script ko’rinishida mavjud. Tilning birligi varianti HTML standartining faqatgina uniqurilmasidan iborat bo’lib, bu formatta yaratilgan xujjat imkoniyatlarini oshiradi. Java Script da yozilgan modul, HTML fayliga qism dastur sifatida integrasiya qilinadi va HTML ning mos qatoridan, standart, komanda bilan bajarishga chaqiriladi. Brauzerga joylashtirilgan til interpretatori ham skript, ham gipermatn kodini yagona xujjat sifatida qabul qiladi.

Java moduli Java Script dan farqli ravishda undan foydalanuvchi sahifaga integrasiya qilinmaydi va clasc kengaytmasi sifatida, ya’ni applet sifatida

mavjuddir. Applet ishining bu variantidan fodalanishda, html-fayldan mos komanda orqali chaqiriladi, fon rejimida alohida dastur sifatida yuklanadi, inisializasiya qiliniadi va boshqarishga qo'yiladi.

Java texnologiyasi yordamida o'z sahifangizga interaktivlik elementini kiritishingiz, har turdagi faol bo'lgan "yuruvchi qator" "soat" va har anniksasiya kiritishingiz, suzib chiquvchi oynalar, joylashtirilgan freymlarni to'liq nazorat qilishingiz, yaratishingiz mumkin.

Veb kameralar aksariyati saytlarga "jonli" tasvir beruvchilari ham Java ning mos ilovalari asosida ishlaydi.

## 2.2. HTML ning komandalari va qo'llanilish tavsifi

HTML (Hyper Tetxt Markup Language — gipermatnli belgilash tili) WWW sistemasi uchui hujjat tayyorlashda ishlatiladi. HTML tili WWW da gipermatn hujjatlarni tayyorlash vositasidir. WWW sistemasidan qandaydir hujjat yoki xabar olsangiz, ekranda yaxshi formatlangan, o'qish uchun qulay matn paydo bo'lganini ko'rasiz. Bu shuni anglatadiki, WWW hujjatlarida ma'lumotlarni ekranda boshqarish imkoniyati ham mavjud. Siz foydalanuvchining qaysi kompyuterda ishlashini bilmaysiz, WWW hujjatlar aniq bir kompyuter platformalariga mo'ljallangan yoki qaysidir format bilan saqlanishini oldindan ayta olmaysiz. Ammo kompyuterda ishlayotgan foydalanuvchi qaysi terminalda ishlashidan qat'i nazar, yaxshi formatlangan hujjatni olishi kerak. Bu muammoni HTML andoza tili hal qiladi. HTML hujjatning tuzilishini ifodalovchi uncha murakkab bo'lmagan buyruqlar majmuidan iborat. HTML buyruqlari orqali matnlarni istagancha shaklini o'zgartirish, ya'ni matnning ma'lum bir qismini ajratib olib boshqa faylga yozish, shuningdek, boshqa joydan turli xil rangli tasvirlarni qo'yish mumkin. U boshqa hujjatlar bilan bog'laydigan gipermatnli aloqalarga ega.

<u>HTML-da hujjat tuzilishi</u>

HTML tili buyruqlari teg (tag) deb ataluvchi maxsus elementlar yordamida beriladi. HTML tili andozasi bo'yicha hujjatga <HEAD> va <BODY> teglarini

kiritish tavsiya etiladi. Brauzer HTML hujjatni o'qiganida, ularning borligi hujjat bo'limlarini aniq ko'rsatadi. Agar ular bo'lmasa ham brauzer HTML hujjatni to'g'ri o'qiydi, lekin hujjat bo'limlari bir-biridan ajralib turmaydi. Shunday qilib, to'g'ri tuzilgan HTML hujjat quyidagi tuzilishga ega:

<HEAD>
Sarlavhaga oid ma'lumot
</HEAD>
<BODY>
hujjatning mazmuni
<BODY>

Bunda <HEAD>, </HEAD> orasida joylashgan sarlavhaga oid ma'lumot qismida odatda foydalanuvchiga e'tiborsiz, lekin brauzer uchun lozim ma'lumot beriladi. Teglar nomi < > qavs orqali beriladi.

Masalan, <TITLE>, </TITLE>

<BODY>, </BODY> orasiga esa to'laligicha uning operatorlari ketma-ketligi joylashtiriladi.

<u>HTML tili operatorlari</u>

HTML tili operatorlardan tashkil topadi. Ularning ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

<!--...--> — izoh. Shu belgi orasiga joylashtirilgan ixtiyoriy matn izoh deb qaraladi.

<A>...</A> — hujjatga giperaloqani o'rnatish. Ushbu giperaloqaga olib boruvchi URL ta'riflovchisi, HREF atributiga HREF —— http://www.goantipast.html. A</> ko'rinishidagi giperaloqa sifatida tasvirlanuvchi ixtiyoriy so'zlar.

<ABBR>...</ABBR> — o'z matnini abbreviatura (qisqartma) sifatida aniqlaydi.

<ACRONYM>...</ACRONYM> — abbreviaturalarni belgilash uchun ishlatiladi. U orqali akronimlarni (abbreviaturalardan iborat so’zlarni) belgilash tavsiya etiladi.

<ADRESS>...</ADRESS> — hujjat muallifini belgilash va adresini ko’rsatish uchun ishlatiladi.

<B>...</B> — matnni qalinlashtirilgan shrift bilan tasvirlaydi.

<BASEFONT>...</BASEFONT> — hujjatda avvaldan qabul qilingan shriftni o’lchami, turi va rangini ko’rsatish uchun ishlatiladi.

<BIG>...</BIG> — katta o’lchamdagi matnni ko’rsatadi.

<BLINK>...</BLINK> — o’chib-yonib turuvchi matnni tasvirlaydi.

<BODY>...</BODY> — WWW varaqni to’ldiruvchi matn, deskriptorlar va boshqa ma’lumotlarni aniqlaydi.

<CAPTION ALIGN — (TOP yoki BOTTOM)>...<CAPTION> — jadval sarlavhasi tegi.

<CITE>...<CITE> — kitob nomlari yoki sitatalar va maqolalarda boshqa manbalarga murojaat va hakazolarni belgilash uchun ishlatiladi.

<CODE>...</CODE> — o’z matnini programma kodinish katta bo’lmagan qismi sifatada aniqlaydi.

<DEL>...</DEL> — o’z matnini o’chirilgan sifatida aniqlaydi.

<DFN>...</DFN> — o’z matn qismini ta’rif sifatida aniqlaydi.

<DL>...</DL> — ta’riflar ro’yhatini ko’rsatadi. Ichida <DT> teg orqali aniqlanayotgan termin, <DD> teg bilan esa abzas o’z ta’rifi bilan aniqlanadi.

<EM>...</EM> — matnning zarur qismlarini ajratish uchun ishlatiladi. Odatda bu qo’lyozmali ko’rinishlardir.

<FONT>...</FONT> — shrift parametrlarini ko’rsatadi. Parametrlar: FACE (shrift turi), SIZE (shrift o’lchami) va COLOR (shrift rangi).

<H1>...</H1> — birinchi pog’ona sarlavhalari. Eng kattalari.

<H2>...</H2> — ikkinchi pog’ona sarlavhalari. Umuman olti xil sarlavhalar mavjud. Ularping qolgan to’rttasi <H3>,<H4>,<H5>,<H6> lar bilan belgilanadi.

<HEAD>...</HEAD> — sarlavhani aniqlaydi, hujjat haqidagi ma’lumotni ko’rsatadi. Masalan, nomi.

<HR> — gorizontal chiziq (chizg’ich) qo’yadi.

<HTML>...</HTML> — sizning hujjatingizni kodlashtirishda ishlatish uchun tilni aniqlaydi. Ochuvchi hujjatni boshida, yopuvchi esa oxirida joylashtiriladi.

<I>...</I> — matnni qo’lyozma(qiya) shrift bilan tasvirlaydi.

<IMG> — rasm joylashtiradi. Masalan: <IMG SRC —— "MUST.JPG">, bu yerda MUST.JPG — sizning Web sahifangiz fayli bilai bitta katalogda turgan rasmli fayl nomi.

<INS>...</INS> — o’z matnini orasiga joylashtirish kabi aniqlaydi.

<KBD>...</KBD> — matnni foydalanuvchi tomonidan klaviatura orqali kiritilgan kabi aniqlaydi. Odatda monoshirin shrift bilan tasvirlanadi.

<UL>...</UL> — to’la tartiblanmagan ro’yxatni aniqlaydi.

<OL>...</OL> — to’liq tartiblangan ro’yxatni aniqlaydi. LI — ro’yxatning elementlari hisoblanadi.

<LI>...(</LI>) — ro’yxatdagi xar bir element boshlanishini aniqlaydi.

<P>...</P> — bitta abzasning boshlanishini aniqlaydi.

<PRE>...</PRE> — oldindan formatlangan matnni aniqlaydi.

<Q>...</Q> — qisqa sitatalarni matn satrida belgilaydi. Odatda qo’lyozma shaklida tasvirlanadi.

<SAMP>...</SAMP> — matnni namuna sifatida belgilaydi.

<SMALL>...</SMALL> — kichik o’lchamdagi matnni ko’rsatadi.

<SPAN>...</SPAN> — matn qismining xossalarini bekor qilish zarur bo’lganda ishlatiladi.

<STRONG>...</STRONG> — matnning muhim qismlarini ajratish uchun ishlatiladi, odatda qalinroq shrift ko’rinishida bo’ladi.

<TABLE>...</TABLE> — jadvalni aniqlaydi (<TR>, <TD>, <TH>ga qarang)

<TABLE BORDER = ... — ramka qalinligini belgilaydi.

<CELLSPACING = ... — qo’shni yacheykalar orasidagi masofa.

<TD>...</TD> — jadval satrida alohida yacheykani ramkaga oladi.

<TH>...</TH> — jadval sarlavha yacheykasi uchun ishlatiladi.

<TITLE>...</TITLE> — sarlavhani tashkil etadi.

<HEAD> va </HEAD> — sarlavxaga oid ma'lumotlar.

<TR>...</TR> — jadvalda satrning boshi va oxiri.

<U>...<U> — matnni ostki qismi chizilgan holda tasvirlaydi.

<VAR>...</VAR> — programmadagi o'zgaruvchilarning nomlarini belgilaydi. Odatda kursiv ko'rinishda bo'ladi.

Mantiqiy formatlash teglari

<ABBR>...</ABBR> — matnni qisqartma shaklida tasvirlaydi.

<ACRONYM>...</ACRONYM> — qisqartmalarni belgilash uchun ishlatiladi.

<CITE>...</CITE> — sitatalar, kitoblarning nomlari va boshqa manbalarga murojaat qilish.

<CODE>...</CODE> — o'z matnini programmaning kichik qismi sifatida belgilaydi.

<DEL>...</DEL> — o'z matniii o'chirilgan deb belgilash.

<DFN>...</DFN> — o'z matn qismini ta'riflangan ko'rinishda saqlaydi.

<INS>...</INS> — o'z matnini qo'yiluvchi sifatida belgilash.

<EM>...</EM> — matn qismlarini muhim kursiv bilan belgilash.

<KBD>...</KBD> — matnni klaviaturadan kiritish deb belgilash. Odatda bir xil shrift ishlatiladi.

<Q>...</Q> — matnda qisqa sitatalarni kursiv shaklida belgilaydi.

<SAMP>...</SAMP> — matnni misol sifatida belgilaydi.

<STRONG>...</STRONG> — matnning muhim qismini ajratish uchun qilingan shrift sifatida belgilaydi.

<VAR>...</VAR> — programma o'zgaruvchilarini nomini belgilaydi. Odatda kursiv shaklida bo'ladi.

Fizik formatlash teglari

<B>...</B> — matnni qalin shriftda tasvirlaydi.

<I>...</I> — matnni kursiv shriftda tasvirlaydi.

<TT>...</TT> — matnni bir xil kenglikda tasvirlaydi.

<U>...</U> — matnni ostki qismi chizilgan holda tasvirlaydi.

<STRIKE>...</STRIKE> va <S>...</S> — matnni gorizontal chizilgan shaklda tasvirlaydi.

<BIG>...</BIG> — katta hajmdagi matnni chiqaradi.

<SMALL>...</SMALL> — kichik hajmdagi matnni chiqaradi.

<SUB>...</SUB> — matnni satrdan pastroqqa surib, uni kichikroq shrift bilan chiqaradi.

<SUP>...</SUP> — lipillab, tez-tez yonib o’chib turadigan matnni tasvirlaydi.

<BLINK>...</BLINK> — matnni tez-tez yonib o’chadigan ko’rinishda tasvirlaydi.

<SPAN>...</SPAN> — matnni xossalarini berishda ishlatadigan bo’lakni bekor qilish.

<FONT>...</FONT> — shrift parametrlarini ko’rsatadi, parametrlar: FACE (shrift turi), SIZE (shrift o’lchovi) va COLOR (shrift rangi).

</BASEFONT>...</BASEFONT> — hujjatda oshkormas ravishda foydalaniladigan, shriftning o’lchovi, turi va rangini ko’rsatishda foydalaniladi.

DTHTML kengaytirish.

Albatta HTML vaqt o’tish bilan mukammallashib boradi. HTML andozalari ham takomillashib imkoniyatlari ortib boradi. DTHTML (Dynamic HTML) - HTML hujjataing yangi andozasidir. U quyidagi yangiliklarni amalga oshiradi.:

- HTML hujjatni ko’rishda mumkin bo’lgan hodisalar, obyektlarning har xil harakatlari soniii kengaytirish.

- HTML hujjatga uning ma’lumelementlarining parametrlari bo’lmish formatlash stillarini, ya’ni harflarning o’lchami, matnning rangi, abzas chekinishlari va hokazo imkoniyatlarni kiritish.

Stilli formatlash, HTML hujjat ichida matnni rasmiylashtirish, variantlarini tasvirlash uchun xizmat qiladi. Buesa HTML ichida mustaqil ravishda shriftlarni

va uni o’lchamini, abzas chekinishlarini elementlarning ramkasi, ranglarini va boshqalarni berish imkoniyatlarini tug’diradi. Brauzer programma ko’rib chiqadigai hodisalar sonini ko’paytirish hujjat dizaynini yaxshilashga olib keladi. Bunday imkoniyatlar, ya’ni DTHTML andozani qo’llash faqat Microsoft Internet Explorer-ning 4.0-versiyasidan boshlab amalga oshirildi. Eski brauzerlar DTHTMLni qo’llamasligi ham mumkinligini esda saqlash lozim.

HTML-da programmalash tillaridan foydalanish.

HTML-ning rivojida DTHTML-dan tashqari Internet sahifalarini yaratishda yana bir imkoniyat – programmalash tillari yordamida sahifalar yaratish imkoniyati paydo bo’ldi. Uning yordamida HTML hujjatga u yoki bu effektlarni (yangi elementlarni) kiritish mumkin. Buning uchun Java programmalash tilidan foydalaniladi. Hozirda HTML hujjatlarni ishlab chiqishda Java amaliy andoza bo’lib, u Internet amaliy programmalarini yaratish uchun qo’llaiiladi. Uning yordamida programmalar axborot serverlar hamda HTML hujjatlar uchun yozilishi mumkin. U apparatga (kompyuterga) bog’liq bo’lmagan til sifatida yaratilganligi uning universalligini ta’minlaydi. Java IBM RS, Macintosh, Unix sistemali, ya’ni turli platformali kompyuterlarda bemalol ishlayveradi. Tabiiyki, mavjud brauzer programmalar uni «tushunadi».

Java programmalash tili.

Java bizga ma’lum programmalash tillari(C, C++ lar)ga o’xshab qurilgan, ya’ni uning ham o’z obyektlari mavjud. Java ayniqsa, qidirish imkoniyatini kuchaytirishni amalga oshiruvchi axborot serverlar yaratishda keng qo’llanilmoqda. Foydalanuvchi kompyuterida uning ishlatilishi har safar kod sahifasini kiritish bilan bog’liq bo’ladi (aks holda, brauzer ma’lumotlarni yaxshi tushunmasligi mumkin). Shuning uchun ham uning mijoz kompyuterda ishlatilshii qiyinroq kechishi hollari uchraydi.

Foydalanuvchi kompyuterida ishlash uchun mo’ljallangan Java-da yozilgan programmalarga Java Applet deb ataladi. Ular axborot serverning maxsus kataloglarida saqlanadi. Dizayner u orqali HTML hujjatga murojaat qilishni qo’shadi. Foydalanuvchi ushb Applet-ni kompyuterlarga yuklashda brauzer

programma uni topadi va uni mijoz kompyuterga yuklaydi. Shundan so'ng bu programma foydalanuvchi kompyuterida ishlay boshlaydi. Shunday qilib, Java Applet quyidagi sxema bo'yicha ishlaydi:

-  tarkibida maxsus kodlarni saqlagan programmagaega bo'lish;
-  HTML hujjatda bu programma tasviri mavjud bo'lishi;
-  programma mijoz kompyuterga hujjat matni bilan birgalikda joylashishi;
-  brauzer bu programmani ishga tushirishi va keraklieffektni amalga oshirishi.

Java-ni bu tarzda ishlashini ta'minlash foydalanuvchidan, albatta, ushbu sohaga oid qandaydir bilimni talab qiladi.

Java Script.

Java Script – bu programmalash texnologiyasi bo'lib, HTML hujjatlarni yaratishda ishlatiladi. Unda makro buyruq texnologiyasi, ya'ni bir necha buyruqni bir makro buyruq shaklida tasvirlash keng qo'llanilgan. Bu makro buyruq matnlari maxsus qoidalar asosida yoziladi. U HTML hujjatga kiritiladi. HTML hujjatga murojaat qilishda brauzer uni topib sharhlaydi va unda keltirilgan buyruqlarni bajaradi. Java Script-dagi programmalarning afzalligi uning informasiya serverlardan va brauzer programmalaridan nazariy bog'liqsizligidir. Foydalanuvchi o'z sahifasida programma kodini (masalan, 18) ko'rsatib, ixtiyoriy operasion sistemada uning bajariliishga umid qilishi mumkin. Java Script-ning boshqa versiyalari mavjud bo'lgani uchun, masalan  Script  , VB Script (Visual Basic Script) va boshqalar odatda tegida uni HTML-ning Java Script kiritilgan joyda quyidagicha ko'rsatiladi:

<Script Language - - "Java Script"> yoki

<Script Language - - "J Script">.

<Script Language - - "VB cript">.

## 2.3. Java platformasi

Java ning eng keng tarqalgan va kun baxslarga sabab bo'lgan xususiyati ko'p-, yoki krossplatformaligidir. Bu esa o'z navbatida JVM virtual mashinasidan foydalanish hisobiga erishiladi. U oddiy dastur bo'lib, operasion tizimda bajariladigan va Java ilovalarga hamma zaruriy imkoniyatlarni beradi. JVM ning hamma parametrlari maxsuslashtirilgan bo'lgani uchun, faqat yagona masala-hamma mavjud foydalaniladigan platformalarda virtual mashinani amalga oshirish qoladi.

Virtual mashina mavjudligi Java ning ko'p xossalarini belgilaydi. Shu yerda Java kompilyasiya qilinadigan yoki interpretasiya qilinadigan tilmi degan savol qo'yiladi, amalda ikkala yondashishdan foydalaniladi.

Ixtiyoriy Java dasturining boshlang'ich kodi oddiy matn fayllaridan iboart bo'lib, ular ixtiyoriy matn redaktorida yoki maxsus vositada yaratilishi mumkin va Java kengaytmasiga egadir. Bu fayllar Java – kompilyator kirishiga beriladi, u esa ularni maxsus Java bayt-kodga translyasiya qiladi. Aynan shu ixcham va samarali ko'rsatmalarni JVM qo'llaydi va u Java plaftormasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Java ning eng muhim xususiyatlaridan yana biri obyektga yo'naltirilganlikdir. Java da amalda hamma narsa obyektlar ko'rinishida amalga oshirilgan, ya'ni bajarilish oqimlari, ma'lumotlar oqimlari, tarmoq bilan ishlash, tasvir bilan ishlash, foydalanuvchi interfeysi bilan ishlash, xatolarga ishlov berish va x.k.lar. Umuman olganda Java dagi ixtiyoriy ilova –obyektlarni yangi tiplarni tasvirlovchi sinflar to'plamidir.

Java da qat'iy tipiklashtirish qo'llaniladi. Bu esa, ixtiyoriy o'zgaruvchi va ixtiyoriy ifoda kompilyasiya vaqtida tipga ega bo'lgan bo'ladi. Bunday yondashish muammolarni aniqlashni soddalashtirish uchun qo'llanilgan, chunki kompilyator xatolar to'g'risida darrov xabar beradi va ularning koddagi joyini ko'rsatadi. Dastur bajarilayapgan vaqtda, chetga chiqish holatlarini (Java da korrekt bo'lmagan xollar deyiladi) qidirish murakkab testlashni talab qiladi, bunday holda

defekt sababi butunlay boshqa sinfda topilishi mumkin. Shunday qilib, kod yozishda ozgina qo'shimcha vaqt va kuch sarflab, uning sezilarli darajada ishonchliligini oshirish mumkin, Java ni yaratish vaqtda yangi til yaratish maqsadi ham shu edi aslida.

Java da hammasi bo'lib obyekt bo'lmagan 8 tagina tip mavjud. Ular birinchi versiyadayoq aniqlangan bo'lib, hyech qachon o'zgarmagandir. Bular 5 ta butun sonli tiplardir: byte, short, int, long va yana ularga simvolli char ham kiradi.

Yana 2 ta kasr tip float va double, va nixoyat bul tipi-boolean dir. Bunday tiplar oddiy yoki primitiv tiplar deyiladi. Qolgan tiplar- obyektli va ko'rsatkichli tplar deyiladi.

Albatta Java tili C/C++ tillari sintaksisi asosida yaratilgandir, ammo bu til C++ ning soddalashtirilganidir (qo'shimcha imkoniyatli) m-n, garbage collector imkoniyati qo'shimchasi bilan deb o'ylash noto'g'ridir. Ammo Java C++ kabi tildir deb o'ylash noto'g'ridir.

Albatta mualliflar yangi texologiyani ishlab chiqa turib, keng tarqalgan dasturlash tiliga bir qator sabablarga ko'ra asoslanganlar. Birinchidan, ular o'sha vaqtda C++ ni o'zlarining asosiy instrumentlari deb hisoblaganlar. Ikkinchidan, mos keluvchi asosdan nima uchun foydalanmaslik kerak. Va nihoyat tanish sintaksis foydalanuvchilar diqqatini o'ziga tortadi, chunki Java tez tanilishi kerak edi. Shuning uchun sintaksis sal soddalashtirilib, judayam chalkash konstruksiyalardan voz kechildi.

C++, yangi masalalarni yechishga umuman to'g'ri kelmagani uchun, Java modeli boshidan boshqacha qilib ishlab chiqildi va bunda boshqa maqsadlarga asoslandi.

Obyekt modeli, IBM ning Smalltalk namunachi bo'yicha ishlab chiqildi.

Java o'rganish va maxsulot ishlab chiqishda yengilligi asosiy xossadir.

Java da birinchi o'rinni xotira bilan ishlash egallaydi, chunki Java da boshidanoq chiqindilarni avtomatik tarzda tozalash mexanizmi kiritilgan. Dastur, biror obyek hosil qildi va u bilan ishlaydi, va keyinroq u kerak bo'lmay qolganda

OT ga xalaqit bermaslik uchun xotirani bo'shatish zarur bo'ladi. Boshqa tillarda (C++) bu holda ko'p qiyinchiliklarga duch kelamiz.

Java dasturlarni ishlab chiqishda dasturchi umuman xotirani bo'shatish xaqida o'ylamaydi. Virtual mashina har bir obyektga murojaatlarni (ssылkalarni) hisoblaydi va x.k.. chiqindilarni yig'uvchi (sborщik musora) mavjud obyektlarni muntazam tekshirib turadi, va kerak bo'lmay kolganlarini olib tashlay beradi. Dasturdan turib, garbage collector ishiga xech ham ta'sir qilib bo'lmaydi.

Java bilan ishlashda, mutaxassis dasturchilar bilan emas, balki oddiy foydalanuvchilar bilan ishlaganda juda ishonchli bo'lishi kerak.

Internet jahon to'ri bo'lib qoldi, unda esa mutaxassis bo'lmagan foydalanuvchilar paydo bo'ldi, ular ham aplet yarata olishlari uchun, ishonchli ilovalar yaratishlari uchun oddiy vosita talab qilindi.

Internet keskin rivojlangani uchun, maxsulotlar ishlab chiqishning muddatlariga qat'iy talablar qo'yila boshlandi.

Java ning keyingi muhim xossasi – xavfsizlikdir.

Boshidanoq ilovalarning taqsimlanganligiga mo'ljallanganlik, ayniqsa appletlarni kliyent mashinada bajarish, ximoya masalasini imtiyozli masalaga aylantiradi. Ixtiyoriy Java virtual mashinasini ishlashida qator tadbirkor amal qiladi.

Virtual mashina – interpretator mavjudligi ma'lum ma'noda ishning har bir bosqichida, xavfli kodni olib tashlashni yengillashtiradi. Boshida bayt-kod tizimga yuklanadi. JVM diqqat bilan, ularning hammasi Java xavfsizligining umumiy qoidalariga bo'ysunadimi yo'qmi tekshiradi.

Va nihoyat tarmoq bo'ylab yuklanadigan applet va boshqa ilovalar imzolanadigan mexanizmi mavjuddir. Maxsus sertifikat, foydalanuvchi kodni qanday ishlab chiqilgan bo'lsa, shunday olinganiga kafolat beradi. Bu qo'shimcha ximoya vositasini bermaydi, ammo kliyentga ishonchli bo'lmagan ishlab chiquvchi ilovalari bilan ishlashdan voz kechish, yoki dasturga mualliflashtirilmagan o'zgartirishlar kiritilganligi darrov ko'rishga imkon beradi. Eng yomon holda zarar uchun kim javobgarligini aniqlash mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan Java ning xossalari, Internet va intranet (korporasiya ichki tarmog'i) ilvoalarni ishlab chiqishga moslashganligini ta'kidlashga imkon beradi.

## 2.4. PHP tili

PHP tili aynan amaliy masalalarni yechishda qurol sifatida ishlab chiqilgan. Rasmus Lerdorf, o'zining on-line rezyumesini nechta o'qiyaptganini bilishni xoxlagani uchun Perl tilida CGI-qobiqni yaratgan, ya'ni bu Perl skriptlar majmuasidan iborat bo'lib, aniq maqsad uchun –tashriflar statistikasini yig'ishga yaratilgan.

**PHP imkoniyatlari.** "PHP hamma narsani qila oladi" deydilar uning yaratuvchilari. Birinchi navbatda PHP server tomonida ishlaydigan skriptlarni yaratish uchun ishlatiladi, umuman olganda u shu maqsadda yaratilgan edi. PHP ixtiyoriy boshqa CGI-skriptlar yechadigan masalalarni yecha oladi, shu bilan birga html-formalar ma'lumotlarni qayta ishlaydi, html-sahifalarni dinamik tarzda generasiya qiladi. PHP dan boshqa sohalarda ham foydalanish mumkin. PHP dan asosan 3 ta sohada foydalanish mumkin:

- Birinchi soha, yuqorida ko'rsatilgandek ilovalar (skriptlar) yaratish, ular server tomonida bajariladi, PHP aynan shu xildagi skriptlarni yaratish uchun keng qo'llaniladi. Bunday holda ishlash uchun PHP-parser (ya'ni PHP-skriptlarga ishlov beruvchi) va skriptga ishlov beruvchi web server, skript ishi natijasini ko'rish uchun brouzer, va albatta PHP kodni o'zini yozish uchun matn taxrirlovchisi kerak bo'ladi.

PHP – parser, CGI-dasturi yoki server moduli ko'rinishida tarqatiladi.

- Ikkinchi soha – bu komanda qatorida bajariladigan skriptlarni yaratish mumkin. Bunday ish uchun faqat PHP-parser zarur, bu holda uni komandaqatori interpretatori deyiladi. Ishning bu tarzda tashkil etilishi, turli xil masalalarni rejalashtiruvchilar yordamida muntazam bajarilishi kerak bo'lgan skriptlar uchun yoki matnga odiy ishlov berishda ishlatiladi.

- Eng oxirgi soha – kliyent tomonida bajariladigan bu GUI ilovalarni yaratish (grafik interfeyslar). Prinsip jihatdan bu PHP dan foydalanishning ayniqsa boshlovchilar uchun eng yaxshi usuli emas, ammo PHP ni yaxshi o’rganganlar uchun juda fooydalidir. PHP ni bu sohada qo’llash uchun maxsus instrument – PHP-GTK- PHP kengaytmasi talab qilinadi.

PHP qo’llanish sohalari yetarli darajada keng va turli tumandir. Ammo shu bilan birga dasturlashning boshqa tillari ham juda ko’pdir, ular ham o’xshash masalalarni yecha oladi.

Nima uchun aynan PHP dan foydalanamiz.

Birinchidan PHP ni o’rganish oson, sintaksis asosiy qoidalari va uning ishlash prinsipi bilan tanishish yetarli, va shu bilimlar bilan boshqa tillarda jiddiy tayyorgarlik talab qilinadigan dasturlarni yozish mumkin.

Ikkinchidan, PHP hamma ma’lum platformalarda qo’llaniladi, hamma operasion tizimlar bilan va turli serverlarda ishlaydi. Bu juda muhimdir.

PHP da dasturlashning ikkita ommaviy dasturlash paradigmalari mujassamlangan, ya’ni obyektli va prosedurali. PHP 4 da prosedurali dasturlash to’laroq qo’llaniladi, ammo obyekt stilida dasturlash imkoni ham mavjud. PHP5 da obyektga mo’ljallangan dasturlashni amalga oshirishdagi kamchiliklar yo’qotilgan.

Hozirgi kunda PHP ni imkoniyatlarini aytib o’tar ekanmiz, quyidagilarni alohida ta’kidlash zarur. PHP yordamida tasvirlar, PDF fayllar, flesh roliklar yaratish mumkin. Unga juda ko’p zamonaviy ma’lumotlar bazalari bilan ishlash imkoniyati, turli formatdagi matn ma’lumotlari bilan ishlash va fayl tizimi bilan ishlash funksiyalari qo’shilgan. PHP mos protokollar turli xizmatlari bilan ishlash: ya’ni tarmoq qurilmalari-SNMP, ma’lumotlarni uzatish IMAP, NNTP va POP3, gipermatn uzatish - HTTP protkollarini qo’llaydi.

Turli dasturlash tillari bilan o’zaro aloqasi to’g’risida gapirganda, alohida Java obyektlarini qo’llanilishini va ularni PHP obyektlari sifatida ishlatish imkoniyatini ta’kidlash zarur.

## 2.5. Ma’lumotlar bazasini yaratish. SQL tili

SQL - kompyuter Ma’lumotlar bazasida saqlanuvchi ma’lumotlarni qayta ishlash va o’qish uchun muljallangan instrumentdir. SQL – bu strukturlashgan so’rovlar tilining (Structured Query Language) qisqartirilgan nomlanishidir. SQL abbreviaturasi odatda “sikvel” deb o’qiladi. Ba’zi hollarda, “ESKYuEL” talaffuzi ham SQL abbreviaturasini o’qishda ishlatiladi. Nomlanishidan ko’rinib turibdiki, SQL foydalanuvchining Ma’lumotlar bazasi bilan o’zaro aloqasini tashkil etish uchun qo’llaniluvchi dasturlashtirish tilidir. Haqiqatda esa SQL faqat relyasion deb nomlanuvchi bir turdagi Ma’lumotlar bazasi bilan ishlaydi.




2.1-rasm. SQL ni ishlash sxemasi tasviri

Bu sxemaga muvofiq hisoblash sistemasi muhim ma’lumotlar saqlanuvchi Ma’lumotlar bazasiga ega bo’ladi. Agarda hisoblash sistemasi biznes doiraga tegishli bo’lsa Ma’lumotlar bazasida moddiy boyliklar, ishlab chiqariladigan mahsulotlar, sotish hajmi va ish haqlari haqidagi axborotlar saqlanadi.

Shaxsiy kompyuterdagi Ma’lumotlar bazasida cheklar, telefonlar va adreslar yoki nisbatan kattaroq bo’lgan hisoblash sistemalarining ma’lumotlari saqlanishi mumkin. Ma’lumotlar bazasini boshqaruvchi kompyuter dasturi Ma’lumotlar bazasini boshqaruv sistemasi yoki MBBT deyiladi.

Agarda foydalanuvchi Ma’lumotlar bazasidan ma’lumotlarni o’qimoqchi bo’lsa, u buni MBBT dan SQL yordamida so’raydi. MBBT so’rovga ishlov beradi, talab qilingan ma’lumotlarni topadi va uni foydalanuvchiga uzatadi.

Ma’lumotlarga so’rov berish va natijani olish jarayoni Ma’lumotlar bazasiga so’rov berish deb aytiladi. Xuddi shundan, SQL nomi, ya’ni strukturlangan so’rovlar tili degan nomlanish kelib chiqqan.

Lekin bu nom umuman reallikni to’liq in’ikosi emas. Birinchidan, bugungi kungkelib, SQL oddiy so’rovlar tuzuvchi instrument bo’lib qolmasdan, balki ma’lumotlar tuzilmasini yaratish, ulardagi ma’lumotlarni o’zgartirish, ma’lumotlarni himoyalash kabi qator imkoniyatlarga ham egadir. Shunga qaramasdan, ma’lumotlarni o’qish hozirda ham SQL ni muhim bir funksiyasi hisoblanadi. Hozirda bu til MBBT foydalanuvchilariga taqdim etayotgan barcha funksional imkoniyatlari qo’llanilmoqda. Bu imkoniyatlar quyidagilardir:

1. Ma’lumotlar strukturasini tuzish. SQL foydalanuvchilarga ma’lumotlar strukturasini tuzish, o’zgartirish hamda Ma’lumotlar bazasi elementlari o’rtasida aloqalarni o’rnatish imkoniyatini beradi.
2. Ma’lumotlarni o’qish. SQL foydalanuvchi yoki dasturga Ma’lumotlar bazasida saqlanuvchi ma’lumotlarni o’qish va ulardan foydalanish imkonini beradi.
3. Ma’lumotlarni qayta ishlash. SQL foydalanuvchiga yoki dasturga Ma’lumotlar bazasini o’zgartirish, ya’ni unga yangi ma’lumotlar qo’shish, mavjud ma’lumotlarni o’zgartirish va o’chirish imkonini beradi.
4. Ma’lumotlar bazasini himoyalash. SQL yordamida ma’lumotlar bazasi foydalanuvchilarini undagi ma’lumotlarni o’qish va o’zgartirish imkoniyatlarini chegaralab qo’yish mumkin. Bu orqali ruxsat berilmagan foydalanuvchilardan axborotlar himoyalanadi.
5. Ma’lumotlardan birgalikda foydalanish. SQL ma’lumotlardan birgalikda foydalanishni koordinasiya qiladi, bu esa paralel ishlayotgan foydalanuvchilar bir-birlariga xalaqit bermasdan Ma’lumotlar bazasidagi ma’lumotlardan foydalanishlari imkonini beradi.
6. Ma’lumotlar yaxlitligini ta’minlash. SQL Ma’lumotlar bazasini yaxlitligini ta’minlashga imkon beradi va unda noo’rin o’zgartirishlar qilishni oldini oladi.

Demak , SQL MBBT bilan o'zaro aloqa qiluvchi yetarlicha kuchli tildir .

Ikkinchidan, SQL Ma'lumotlar bazasini boshqarish uchun mo'ljallangan bo'lib, unda o'ttizdan ortiq operatorlar aniqlangan. SQL operatorlarni tuzish bo'yicha qator maxsus qoidalarga egadir.

SQL imkoniyatlari

SQL tushunish uchun juda oson til bo'lishi bilan birgalikda ma'lumotlarni boshqarishda universal bo'lgan dasturiy muhitdir.

SQL tili muvoffaqiyatlari quyidagi imkoniyatlarni keltirib chiqardi:

- Konkret MBBT larini mustaqil ishlashi.
- Bir hisoblash sistemasidan ikkinchi sistemaga ma'lumotlarni o'tkazish imkoniyati.
- qator standartlar .
- IBM kompaniyasi tomonidan qo'llanilishi
- Microsoft kompaniyasininig qo'llab-quvvatlashi.
- Relyasion asos.
- Ingliz tilini eslatuvchi yuqori darajali struktura.
- Maxsus interaktiv so'rovlarni bajarish imkoniyati.
- Ma'lumotlar bazasiga dastur orqali kirish huquqi.
- Berilganlarni turlicha ifodalash imkoniyati.
- Ma'lumotlarni dinamik aniqlanishi imkoniyati.
- Kliyent - server arxitekturasini qo'llab quvvatlashi.

Barcha sanab o'tilgan omillar SQL tilini barcha shaxsiy kompyuterlar, mini-kompyuterlar va katta EHM larda berilganlarni boshqarishni standart vositasi bo'lishiga sabab bo'ldi. Quyida bu faktorlar batafsil tavsiflangan.

## 2.6. Saytning umumiy tuzilishi va algoritmi

Saytning umumiy tuzilishi vSayt tuzishda dastlab uning xomaki loyihasi chizib olinadi va bu loyiha rasm1 rasmda keltirib o'tilgan. Sayt zamonaviy

dizaynga ega bo’lishi va sodda ko’rinishga ega bo’lishi uchun odatiy tanlovlardan uzoqlashilgan.




Yuqorida chizmaga asosan har bir sohifaning dizayni yaratiladi va kodi yoziladi. Quyida har bir sohifa haqida batafsil ma'lumot va ularning rasmi keltirib o'tilgan.

## 2.7. Foydalanuvchiga qo’lanma

Hozirgi vaqtda sayt aktiv holatda bo’lib “ABB tech service” korxonasi hizmatlarini internet orqali tavsiya etishda ishlatilmoqda. Ushbu korxona kompyuter qisimlari va pereferiya qurulmalarini tamirlash bo’yicha o’z faoliyatini olib boradi. Korxona mutaxassislari korparativ va shaxsiy mijozlarga hizmat ko’rsatadi. Bundan tashqari eng zamonaviy antivirus vositalari ham ushbu korxonada mijoz hohishini inobatga olgan holda o’rnatiladi va kelajakda doimiy dasturiy va texnologik qo’llab quvatlaniladi.

Korxona hizmatlari bilan tanishishni istagan foydalanuvchilar internet tarmog’iga ulanib http://ddr.uz domenidagi - saytiga kirishlari mumkin.

Browser – address ga http://ddr.uz  yozilgach saxifa ochilad (2.2-rasm).




2.2-rasm**.** Bosh sahifa

http://ddr.uz ni asosiy kirish sahifa hisoblanib unda siz Microsoft windows 8 – ning metro stilini ko’rishingiz mumkin. Ushbu stil METRO yo’nalishida bo’lib fon kvadrat darchalardan iborat bo’ladi. Korxona  hohishiga binoan sayt rus tilida yaratildi. Assosiy bosh bannerda korxona  nomi va hizmat turi korsatilgan.  Chap tarafda qisqacha  korxona  taklif etayotgan hizmatlarni ko’rish mumkin. Misol qilib kompyuterlarni tamirlash, dasturiy taminot vositalarini o’rnatish, printer va tarmoq qurulmalarini tamirlash va o’rnatish kabilarni aytish mumkin. O’ng tarafda darchalar joylashgan.

Bosh qismi (banner) - bu sahifining asosiy yuzi hisoblanib (1 rasm), u oddiy statik yoxud animatsion ko'rinishida bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtda asosiy animatsion bannerlar Adobe Flash dasturida yaratilmoqda. Banner yasashda birinchi e'tibor qaratiladigan narsa uning sayt mazmuniga va dizayniga mos tushishidir (2-rasm)




2.3- rasm. Bosh (banner) qismi

**Esetnod32** – bu zamonaviy antivirus dasturi bo'lib, hozirda dunyo bo'ylab keng miqiyosda ishlatiladi. Ushbu antivirus vositasi yaxshi logic tuzulushga ega bo'lib tezkorligi bilan farqlanadi. Hozirgi kunda 6-versiya ommalashmoqda, 32x va 64x operatsion tizimlarga moslashgan holda tarqatiladi va 1 oy mudatga sinov tariqasida ishlatishga ruhsat etiladi. "Abb tech srvice" ushbu dasturni sotish bo'yicha vakili hisoblanadi. Litsenziyalangan dasturlarinigina tarqatadi (2.4-rasm).




2.4 – rasm. EsetNod (bosilganda quyidagi sahifa ochiladi)

**Esetnod32** - antivirus dasturi uchun qilinga saxifa oddiy ko'rinishda qilingan va assosiy stildan uzoqlashilmagan. Bu dastur hozirda dunyo bo'ylab keng miqiyosda ishlatiladi Hozirda 6-versiya ommalashmoqda, 32x va 64x operatsion tizimlarga moslashgan holda tarqatiladi va 1 oy mudatga sinov tariqasida ishlatishga ruhsat etiladi. Sahifada mijozga zarur bo'lgan axborotlar keltrilgan bo'lib dastur narx, versiyasi, hajmi va OT ga mosligini ko'rsatilgan. Qisqacha qanday imkoniyatlarga egaligi haqida ham axborot berilgan (2.5-rasm).




2.5- rasm. Esetnod32 sahifasi

**Ремонт** – bu qisimda kompyuter qurulmari va tarmoqlariga hizmat ko’rsatish bo’yicha hizmat turlari ko’rsatilgan (2.6-rasm).




2.6- rasm. Ремонт  (bosilganda quyidagi sahifa ochiladi)

**Ремонт** – sahifada korxona ko’rsatadigan hizmatlar turi aytib o’tilgan. Axborot texnologiyalari murakkab soha bo’lib tajribasiz va o’quvsiz foydalanuvchi hohlamagan holda qurulmalarga jiddiy zarar yetkazib qo’yishi mumkin, shu sababdan soha mutaxassislariga murojat qilgan to’g’ri bo’ladi.

Kompyuterlarga tehnik hizmat ko’rsatish, OT o’rnatish, sozlash, modernizatsiya qilish, wi-fi va LAN tarmoqlarni o’rnatish kabilar korxona  tomondan sifatli amalga oshiriladi (2.7-rasm).




2.7- rasm. **Ремонт** sahifasi

**Kaspersky** – bu dunyoning eng mashxur antivirus dasturlaridan biri bo’lib, ishonchli va tezkor hisoblanadi. U ham shaxsiy ham korparativ mijozlarga mos keladi. Hozirgi kunda 2013-versiya ommalashmoqda, 32x va 64x operatsion tizimlarga moslashgan holda tarqatiladi va 1 oy mudatga sinov tariqasida ishlatishga ruhsat etiladi. “Abb tech srvice” ushbu dasturni sotish bo’yicha vakili hisoblanadi. Litsenziyalangan dasturlarinigina tarqatadi (2.8-rasm).




2.8– rasm. **Kaspersky** (bosilganda quyidagi sahifa ochiladi)

**Kaspersky** – ushbu sahifa qolganlaridan stil bo’yicha farq qiladi, bunga sabab Kaspersky kampaniyasi o’z dillerlariga sayt hafvsiz bo’lishi va malumotlar to’g’ri ko’rnishi uchun o’z shaxsiy javascriptini Kaspersky mahsulotlariga ajratilgan ssilkga birlashtrishni so’raydi. Bu sahifada antivirus mahsulotlar haqida to’liq malumotlar mavjud bo’lib turli versiyalaridan birini tanlashga imkon mavjud.  Hozirda Kaspersky dunyoning eng mashxur antivirus dasturlaridan biri

bo’lib, ishonchli va tezkor hisoblanadi. U ham shaxsiy ham korparativ mijozlarga mos keladi. 32x va 64x operatsion tizimlarga moslashgan holda tarqatiladi va 1 oy mudatga sinov tariqasida ishlatishga ruhsat etiladi. “Abb tech srvice” ushbu dasturni sotish bo’yicha vakili hisoblanadi. Litsenziyalangan dasturlarinigina tarqatadi (2.9-rasm).




2.9- rasm. **Kaspersky** sahifasi

**Принтер** – printer qurulmalariga hizmat ko’rsatish, katridjlarini almashtrish va o’rnatish kabi hizmatlarni aks etiruvchi sahifaga olib boradi (2.10-rasm).




2.10- rasm. **Принтер** (bosilganda quyidagi sahifa ochiladi)

**Принтер** – ushbu sahifa printer qurulmalariga hizmat ko’rsatish, katridjlarini almashtrish va o’rnatish kabi hizmatlarni aks etiradi. Ko’pchilik

tajribasiz foydalanuvchilar o’zboshimchalik bilan printer va kserakopiya qurulmalarini taminlamoqchi bo’lishadi va natijada qurulma umuman yaroqsiz holatga kelishi ehtimoli ko’payadi. Korxona sifatli hizmat ko’rsatishni kafolatlaydi va kartrij qanday to’ldirilishi bosqichlarni qisqacha sanab o’tadi (10-rasm).




2.11– rasm. **Принтер** sahifasi

**Форум** – malumki global tarmoqda turli toifadagi foydalanuvchilar mavjud, ular orasidagi tajriba va bilim farqi gohida judda kata ko’rinishda bo’ladi. Yaqindagina kompyuterdan foydalanib internetga ulangan inson bilan 15-20 yil tarmoqda ishlayotgan inson o’rtasida farqni tassavur qilish qiyin emas. Turli vaziyatlarda maslahatga muhtoj bo’lgan foydalanuvchilar Forumlar yordamida o’z bilimlarini kuchaytrishlari va onsonlik bilan masalaga yechim topishlari mumkin. Deyarli barcha yirik saytlarda o’zaro fikrlar almashinuvni taminlash uchun murakkab forumlar o’rnatilgan.

**Полезная информация** – bu saxifada foydalanuvchilar ko’p hollarda yo’l qo’yadigan hatolar yumir ko’rinishida ko’rsatilgan. Esda saqlab qolish onson bolishi uchun. Printerni qanday ekplotatsiya qilmaslik haqida (2.12-rasm).




2.12– rasm. **Полезная информация** (bosilganda quyidagi sahifa ochiladi)

**Полезная информация** – bu saxifada foydalanuvchilar ko'p hollarda yo'l qo'yadigan hatolar yumir ko'rinishida aytilgan bo'lib yuqorida bu haqda gapirilgandi. Aytish kerakki pereferiya qurulmalari murakkab ko'rinishdagi qisimlardan iborat, noo'rin harakat bilan ularni tiklanmas holatga keltrish mumkin, shu sababdan ham agar tajriba bo'lmasa bunday ishlarni mutaxassislarga topshirish maqul. Bundan tashqari pereferiya qurulmalarini ma'lum qoidalarga asoslanib qulay va qurulma uchun salbiy tasir ko'rsatmaydigan muhitda eksplotatsiya qilish maqsadga muvofiq. sahifadagi so'zlardan to'g'ri hulosa chiqarish lozim (2.13-rasm).




2.13– rasm. **Полезная информация** sahifasi

**Контакты** – har bir saytda bo'lgani kabi foydalanuvchiga korxona bilan qanday bog'lanishga oid bo'lgan axborot sahifasini ochadi (2.14-rasm).




2.14– rasm. **Контакты** (bosilganda quyidagi sahifa ochiladi)

**Контакты** – yuqorida siz “abb tech service” korxonasi bilan qanday yo’llar bilan bog’lanish mumkinligini ko’rishingiz mumkin. Bu yerda korxonaning: address, telefon, faks va maili kabi malumotlari ko’rsatilgan. Bundan tashqari qanday qoidalar asosida shartnoma tuzush mumkinligini ko’rish uchun “kelishuv namunasi” ham ko’chirishga mo’ljalab qo’yilgan (2.15-rasm).




2.15– rasm. **Контакты** sahifasi

**Программы** – bu sahifa hozirgi vaqtdagi ommalashgan dastrularni yuklab olish uchun mo’ljallangan bo’lib, sayt foydalanuvchilariga kichik qulaylik yaratadi (2.16-rasm).




2.16– rasm. **Программы** (bosilganda quyidagi sahifa ochiladi)

**Программы** - Sahifa hozirgi vaqtdagi ommalashgan dastrularni yuklab olish uchun mo'ljallangan bo'lib, sayt foydalanuvchilariga kichik qulaylik yaratadi. Bu yerda siz bepul va malum pulga sotib olinadigan dasturlarni ko'rishingiz mumkin. Eng so'ngi versiyalarni yuklab olish mumkin (18-rasm).

Bepul:

- Google chrome – browser:
- Utorrent – torrent kleinti:
- GIMP – fotoredaktor:
- AIMP – audio player:
- KMP – video player:
- Ccleaner – utelita:
- Skype – sotsial agent:
- Mozila firefox – browser:

Pul evaziga:

- Angry birds – oyin:

- Photoshop – fotoredaktor:
- MS office 2013 – matn prosessori:
- Windows 8 – operatsion tizim




2.17– rasm. **Программы** sahifasi

## 2.8. Saytning tarkibiy tuzilishi

Sayt sodda ko’rinishda qilingan bo’lib bunga asosiy sabab buyurtmachining hohishi va tezkorlikni taminlash edi. Sayt turli ko’ngil ochar maqsadlarga emas balki oddiy axborotlarni foydalanuvchilarga tanishtrish uchungina hizmat qilishini hisobga olib unga turli qo’shimcha modul va bazalarni zaruriyati yo’qligi aniq bo’ldi (19-rasm).




2.18-rasm. http://ddr.uz sayti bosh sahifasi

Bosh sahifa

1. Esetnod32 (ushbu dastur haqida malumot va yklab olishga ssilka)
2. Kaspersky (dastur haqida malumotlar)
3. Ремонт (korxona taklif qilayotgan hizmatlar)
4. Принтер (pereferik qurulmalarga oid hizmatlar)
5. Программы (ommaviy dasturlar va yuklash uchun ssilka)
6. Полезная информация (ekplotatsiya uchun maslahatlar)
7. Контакты (korxona bilan o'zoro aloqani taminlash)

## 2.9. Dasturchiga qo'lanma

"ddr.uz" – saytini yaratishda turli dasturiy vositalardan va adabiyotlardan foydalanildi. Ularning basilar zaruriy bo'lsa qolganlari saytga qo'shimcha imkoniyat va chiroy berishga qo'lanilgan. Quyida ishlatilgan dasturlarning o'rnanitlshi va imkoniyatlarini birma bir qisqa ko'rinishda ko'rib chiqamiz.

**1.Denwer** – bu maxsus dastruiy paket veb dasturchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, asosiy maqsadi shaxsiy kampyuterda virtual hosting serverini yaratish. Bu dastur ozida PHP, MySQL, phpmyadmin, Apache kabi dasturlarini ham

birlashtradi. Yagaona paketni o'rnatib undagi barcha imkoniyatlarda bepul foydalanish mumkin.

Rasmiy sayt : http://www.denwer.ru

**Dasturni o'rnatish judda onson." Denwer3_Base_xxxx.exe" yarlikdan ochiladi va beriladigan savollar ha – deb javob beriladi.**




2.19-rasm. Dastur kerakli paketlar borligini tekshiradi va IE ni ochib ko'radi va enter tugmasini boshishni so'raydi.




2.20-rasm. Veb server uchun hamma narsa tayyor bo'lsa veb server joylashadigan papkani ko'rsatish zarur. Menda bu "C:\webserver" bo'lib so'ng enter bosiladi.




2.21-rasm**.** Bu yerda tasdiqlash zarur: y/n




2.22-rasm. Keingi qadamda dastur o’zi uchun virtual disk hosil qiladi. Bunda u qaysi dur virtual diskdan ko’chirma oladi.




2.23-rasm**.** Disk nomini kiritish lozim. Misol “Z” va enter.




2.24-rasm. Endi dastur kerakli faylarni diska yuklaydi va denwer ishlovchi rejimni taklif qilishga o'tadi.




2.25-rasm. Bu yerda denwer ishlovchi rejimlar ko'rsatilga bo'lib, ikki hil usulda uni ishga tushurish mumkin.

1 – holatda OT ishga tushushi bilan denwer ham ishlay boshlaydi o'z virtual diskda. 2 – holatda esa foydalanuvchi ihtiyoriga topshiriladi denwerni qachon ishga tushurish va enter .




2.26-rasm. Denwer dasturi o’rnatildi hisob, endi ishchi stoliga yarliklarni qo’yish kerakligi yoki yo’qligi tanlanadi. y/n va enter.




2.27-rasm. Denwerning yarliklari uni yoqish o’chirishda ishlatilishi ma’lum. Shu bilan dastur o’rnatilishi nihoyasiga yetadi va IE oynasi ochiladi.




2.28-rasm. Shundan kein bemalol serverdan foydalanish mumkin.




2.29-rasm. hosting papkasi

Shu ko'rinishdagi hosting papkasiga fayllar tashlanadi. www-papkasiga tayyor sayt tashlanadi va browser adressidan chaqiriladi. Toliq nomi bilan.

Natijada ochilgan oyna (1-rasm). Yuqorida http://localhost/metro/index.html adressi bo'yicha joylashgan saytimini ochdi.

**2. Adobe Photoshop CS** X-ushbu dastur judda ommabop va qulay grafik redaktorlardan biri bo'lib turli toifadagi foydalanuvchilar o'rtasida hurmat qozongan. Proffisional foydalanuvchilar bu dasturni oddatiy ish qurollariga aylantirganlar. Dasturning qulayliklari ko'p bo'lib deyarli har yili yangilanadi va ma'lum mablag' evaziga sotiladi. Photashop cs 5/6/8… turlari hozirda keng tarqalgan. Imkoniyatlari ko'p ammo ularni o'rganishga o'quv va sabr zarur. Ko'pchilik foydalanuvchilarni ilk bora bu dastur cho'chitadi. Dasturdan men sayt dizaynini yaratishda foydalandim. Turli darchalar va knopkalarni ushbu dastur yordamida chiroyli va qulay qilib yaratish mumkin. Quyida bu dasturdan foydalanish uchun uni o'rnatishni ko'rib chiqamiz.

Rasmiy sayt: http://www.adobe.com

Adobe photoshop cs tanlab uni yuklab olamiz va o'rnatishni boshlaymiz. Kompyuterda ishlayotga boshqa dasturlarni o'chirib turamiz, shunda to'g'ri o'rnatiladi dastur.




2.30-rasm. Adobe photoshop cs o'rnatish uchun Set-up.exe ni bosamiz shundan so'ng yuqoridagi oyna paydo bo'ladi. Rozilik bildrib davom etamiz.




2.31-**rasm.** Adobe photoshop cs seriya raqamini kiritish

Biz dasturni bepul faqat 30 kun ishlata olamiz undan so'ng unga kalit sotib olishga to'g'ri keladi. Bu 30 kun sinov mudati sifatida berilgan.




2.32-rasm. o'rnatishni davom etiramiz, o'rnatilishi zarur bo'lga papkani tanlaymiz.




2.33-rasm. dastur o'rnatildi, undan bemalol foydalanish mumkin.




2.34-rasm. Bu odatiy adobe photoshop oynasi

Bu odatiy adobe photoshop oynasi, ish jarayonida. Ko'rinib turubdiki ushbu redactorda ishlash uchun ko'p funksiyalar yaratilgan, sayt uchun qilinishi mumkin bo'lgan turli kichik rasmlar redactor imkoniyatlarini 10%ni ham ishlatmaydi. Tajribali foydalanuvchilar ushbu dasturdan judda hayratlanarli suratlarni yarata oladilar.

**3. Блакноть -** oddiy Windows OT lariga birlashtrilgan matn prossesori bo'lib soda ko'rinishga ega. U .html, .php, .css,… kengaytmalarni ocha oladi, o'zi esa .txt formatida axborotlarni saqlaydi.




2.35-rasm. **Блакноть -** oddiy Windows OT lariga birlashtrilgan matn prossesori

Bu dasturda saytda ko'rinishi kerak bo'lgan deyarli hamma axborot ko'rsatiladi yozma ko'rinishda, saytni ichki ko'rinishi turli kodlardan iboratligi ma'lum. Kodlarni yozish va o'zgartish shu dastur orqali amalga oshirish qulay.

**4.Browser** – kompyuterdan foydalangan va internet tarmog'iga bir marta bo'lsa ham kirgan inson bu qanday dastur ekanligini biladi. Browserni assosiy maqsadi kodlarda kelayotgan axborotni foydalanuvchiga garafik ko'rinishda yetkazish va jo'natishda aksincha desak hato bo'lmasa kerak. Hozirda turli hildagi browserlar mavjud bo'lib ularni har bir qandaydur qulaylikka va nuqsonga ega. Bazilari tezkor ammo funksiyalari kam, boshqalari ko'p funksiyali ammo sekin ishlaydi. Opera, mozila firefox, google chrome, IE va boshqalari hozirda mashxur. Sayt albatda browser yordamida ishlaydi va turli browserlarga mos bo'lishi zarur. Bazi browserlar ichki kodi tufayli sayt axborotlarini to'g'ri aks etirmaydi. Bunday vaziyatlardan qochish uchun universal usullardan foydalanish zarur**.** Men asosan google chrome browseridan foydalandim.




2.36-rasm**. Google chrome** броузери

Ushbu browser qulay va tezkor hisoblanadi va ichki yadrosini to’g’riligi tufayli ma’lumotlarni to’g’ri aks etira oladi. Browser tez – tez  yangilanib turadi. Hozirda 25/26 versiyalari tarqatilmoqda, dastur bepul hisoblaniladi.

## Adminstrator paneli.  Host orqali boshqaruv

Host orqali boshqarish poneli Administrator yoki guruhga berilgan imkoniyatlarni o’zida ko’rsatuvchi sahifadur. Unda  barcha imkoniyatlar mavjud. Ushbu sahifaga kirish uchun quyidagi manzilga kirish zarur va parol va loginni kiritish kerak.

Domen: https://web1.webspace.uz:2083/

Host: IP: 195.158.31.114




2.37-rasm. administrator poneli

administrator poneli  Команда ООО "Arsenal D"  tomonidan ishlatishga berilgan. Bu oynada login va paroll kiritiladi.



2.38-rasm**.** Hosting egasiga berilgan imkoniyatlari

Hosting egasiga berilgan imkoniyatlarni ko'rish mumkin. Bu yerda sayt faoliyatni  qulay boshqarish mumkin.



2.39-rasm. administrator poneli

Yuqorida administrator ponelini ko'rish mumkin. Shu joydan sayt dokumentlari va kodlarini o'zgartirish va modifikatsiya qilish mumkin.

Bu ponellar host tomonidan boshqarish va sozlash uchun ishlatiladi, saytga birlashtrilgan forumni ichki qiymatlarini  forum o'zidan sozlash imkoniyati mavjud. Bu administrator poneliga kirish uchunham mahsus login va paroll ishlatiladi, quyida bu qanday ko'rinishdaligini tasvirlangan(43-rasm).

## 3.Hayot faoliyati xavfsizligi

### 3.1.Kompyuter xonalarida ish joyini tashkil etilishida qo'ilgan asosiy talablar

Kompyuter xonalarida ish joyi to'g'ri tashkil etilishi ish unumdorligini oshirish, charchashni oldini olish,ish joyidagi jixozlarni va uskunalarni to'g'ri joylashtirishniomillar, ranglarni to'g'ri tanlay bilishdir. Uskunalar shunday joylashishi kerakki ishchilar ortiqcha xarakatsiz, o'zini zo'riqtirmasdan osongina foydalanish.

Ish joyida mehnat sharoitini yaxshilash ishlariga bir qancha omillarni hisobga olgan holda tashkil qilinadi.Bularga tashkiliy, texnikaviy,sanitariya – gigiyena,tabiiy-iqlim omillari kiradi.

Tashkiliy omillar –ishning tashkil etish shakli intizom,mehnat jarayoni ustidan qilinadigan nazoratning holati, mehnat muhofazasi, ishchi xodimlarning kasbiy tayyorgarlik darajasi, texnik omillar jarayonlarini mexanizasiyalash va avtomatlashtirish darajasi, boshqaruvda elektron–hisoblash texnikalarida kompyuterlarni qo'llash, himoyalash vositalarining sozligi va yetarligi kiradi.

Sanitariya-gigiyena omillari -ish joyining sanitariya holatiga javob berish-bermasligi, erganomik omil mashina va uskunalarni inson bilan o'zaro harakatda bo'lganda mashina elementlarining mos kelishi. Bunda texnikani tezlik parametrlariga tegishli, ishchi organlaridan kelayotgan ma'lumotlar xajmi, ish joyining tashkil etilish darajasi, boshqarish organlarining qulay joylashganligi operator o'rindig'ining konstruksiyasi kiradi.

Psixofiziologik omillar-mehnatning og'irligi va qizg'inligi, jamoadagi psixologik vaziyat, ishchilarning bir-biri bilan o'zaro munosabati, jismoniy zo'riqish, asabiy-psixik zo'riqishlash mehnat sharoitining inson organizmiga ta'siri o'rgangan holda quyidagilarni amalga oshirish kerak:

-ishda bajarilayotgan jarayonlar tez va tez talablar chegarasida va harakatlantiruvchi maydonning eng qulay doirasida amalga oshirish:

-ishlab chiqarish binolarida havo muhitini tekshirish;

-ishlab chiqarishdagi metrologik omillarini aniqlash;
-mahalliy va umumiy titrashni aniqlash;
